# 4
# BOB

## MAKTAB FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH DASTURINI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDAGI MONITORING VA TAHLIL (JORIY MONITORING)

# MAKTAB FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH DASTURINI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDAGI MONITORING VA TAHLIL (JORIY MONITORING)

Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish jarayonida oraliq natijalar muntazam kuzatib boriladi, rejalashtirilgan davr yakunida esa yakuniy natijalar baholanadi. Bunday monitoring ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin: **maktabning o‘zini o‘zi baholashi va tashqi baholash.**

Mazkur va keyingi boblarda ushbu monitoring turlarini tashkil etish hamda o‘tkazishning asosiy jihatlari yoritiladi. Eng muhimi, ***o‘zini o‘zi baholash ham, tashqi baholash ham maktab faoliyati samaradorligini baholashning yagona konseptual yondashuvlari hamda ular asosida belgilangan maktab faoliyati hamda ta'lim jarayoni sifati ko'rsatkichlariga tayanadi.*** Shuningdek, o‘zini o‘zi baholashni tashkil etishda ushbu qo‘llanmaning 2-bobida keltirilgan materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Avval ta’kidlanganidek, maktab faoliyati va uning natijalarini yaxshilashning asosiy yondashuvi boshqariladigan rivojlanishga asoslanadi. Bu jarayon quyidagi ketma-ket bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tahlil va diagnostika o‘tkazish, kuchli hamda muammoli jihatlarni aniqlash, ustuvor vazifalarni belgilash, harakatlar rejasini ishlab chiqish, oraliq natijalarni baholash hamda zarurat tug‘ilganda reja va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

Maktab holatining diagnostikasi maktab jarayonlari sifatining tanlab olingan ko‘rsatkichlariga tayangan holda o‘tkaziladi. O‘zgarishlar kiritish uchun aynan ushbu sohalar yoki ko‘rsatkichlarning tanlanishi samarali maktab modeli bilan belgilanadi. Monitoring vazifalariga sifatning tanlangan ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘zgarishlarni kuzatib borish hamda har bir kuzatilayotgan yo‘nalish bo‘yicha har bir tanlangan ko‘rsatkich darajasining ortishi yoki kamayishi sodir bo‘layotganligini tahlil qilish kiradi.

Baholash, xuddi dastlabki o‘zini o‘zi diagnostika qilishda bo‘lgani kabi, quyidagilar yordamida to‘plangan ma’lumotlarga tayanadi:

– so‘rovnomalar;

– sinfda o‘tkazilgan kuzatishlar;

– joriy va yakuniy o‘quv natijalari tahlili;

– boshqa dalillar tahlili: o‘quvchilarning ishlari (shu jumladan, loyiha va ijodiy ishlari), o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot hamda loyiha ishlari, o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan reja, dastur-loyihalar va hokazolar.

Ushbu ma’lumotlarning barchasi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiya hamda darsga jalb etilganligi o‘sishidan, pedagoglarning kasbiy faolligi va qiziqishi ortganidan dalolat berishi mumkin, bular esa, o‘z navbatida, maktab holatidagi ijobiy o‘zgarishlar belgisi hisoblanadi.

O‘quvchilar (kontingent) dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham muhim axborot manbayi bo‘lib xizmat qiladi:

– ta’limning barcha bosqichlarida o‘qishdan ketganlar sonining kamayishi;

– yuqori bosqichda (sinflarda) o‘quvchilar sonining ko‘payishi;

– 10-sinfga o‘tgan o‘quvchilar ulushining ortishi;

– 1-sinflarga qabulning o‘sishi.

Ushbu ma’lumotlar maktab imidji o‘zgarganidan va oilalar nazarida uning nufuzi oshganidan dalolat beradi. Maktab jamoasi tomonidan samaradorlikning asosiy elementlariga hamda rivojlanish kutilayotgan sifat sohalari / ko‘rsatkichlariga asoslangan o‘zgarishlar monitoringining umumiy rejasi tuzilishi kerak.

Oraliq monitoring rejasi diagnostika vositalarini o‘z ichiga oladi. Maktab hayotida va uning jamoasi holatida o‘zgarishlar qanchalik faol yuz berayotganini ko‘rsatuvchi vositalardan biri sifatida quyida keltirilgan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan so‘rovnoma tavsiya etilishi mumkin.

**O‘qituvchilar uchun “O‘zgarishlar bormi?” mavzusidagi so‘rovnoma**

*Aziz hamkasblar!*

*Quyida maktab hayotidagi o‘zgarishlarni ifodalovchi tasdiqlar ro‘yxati keltirilgan* (18-jadval).

*Sizdan har bir tasdiqning so‘nggi bir yil davomida maktabingizda kuzatilgan o‘zgarishlarga qay darajada mos kelishini baholashingizni so‘raymiz.*

*Hamkorligingiz uchun minnatdorlik bildiramiz!*

*18-jadval*

**O‘qituvchilar uchun “O‘zgarishlar bormi?” so‘rovnomasi**

| № | Tasdiq | O‘zgarishlar yo‘q | Sezilarsiz o‘zgarishlar | Sezilarli o‘zgarishlar |
|---|---|---|---|---|
| **Ishonch va hamkorlik** | | | | |
| 1 | O‘qituvchilar dars berish (o‘qitish) jarayonini o‘zaro muhokama qiladilar | | | |
| 2 | Maktab o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorligini qo‘llab-quvvatlaydi | | | |
| 3 | O‘qituvchilar dasturlar va o‘quv rejalarini birgalikda ishlab chiqadilar | | | |
| 4 | Men hamkasblarim bilan kelishilgan qarorlarga amal qilaman | | | |

*18-jadvalning davomi*

| № | Tasdiq | O‘zgarishlar yo‘q | Sezilarsiz o‘zgarishlar | Sezilarli o‘zgarishlar |
|---|---|---|---|---|
| 5 | Maktabimiz jamoasidagi yaxshi munosabatlar yangiliklar (innovatsiyalar) samarasini yanada oshiradi | | | |
| **Maqsadli jamoaviy ish** | | | | |
| 6 | Maktabda o‘quv maqsadlari va ularga erishish darajasi muntazam ravishda muhokama qilinadi | | | |
| 7 | O‘qituvchilar maktab natijalarini yaxshilash bo‘yicha ishlarga jalb etilgan | | | |
| 8 | Maktabda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etadigan strategik jamoa shakllantirilgan | | | |
| 9 | Maktab natijalarini yaxshilash jarayonini strategik jamoa boshqaradi | | | |
| 10 | Maktab rahbariyati o‘qituvchining jamoaviy ishdagi ishtirokini rag‘batlantiradi, jumladan, moddiy jihatdan ham | | | |
| **Ma’lumotlar bilan ishlash** | | | | |
| 11 | Maktabda rejalashtirish ma’lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshiriladi | | | |
| 12 | Belgilangan maqsadlarga erishilganligi o‘quvchilarning ta’lim natijalari qanchalik o‘zgarganligi bilan belgilanadi | | | |
| 13 | Maktab ichki monitoringi o‘qitish imkoniyatlarini yaxshilaydi | | | |
| 14 | Maktabda o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishi (progresi) to‘g‘risida turli xil ma’lumotlar to‘planadi | | | |

*18-jadvalning oxiri*

| № | Tasdiq | O‘zgarishlar yo‘q | Sezilarsiz o‘zgarishlar | Sezilarli o‘zgarishlar |
|---|---|---|---|---|
| 15 | O‘qituvchining yutuqlari turli usullar bilan o‘lchanadi | | | |
| **Kasbiy rivojlanish imkoniyatlari** | | | | |
| 16 | Maktab foydali ishchi guruhlar va treninglar tashkil etadi | | | |
| 17 | Maktab o‘qituvchilarga mustaqil ta’lim olish uchun vaqt ajratadi | | | |
| 18 | O‘qituvchilar amaliyot, refleksiya va muhokama uchun imkoniyatga ega bo‘ldilar | | | |
| 19 | O‘qituvchilar dars berishning yangi strategiyalari / texnologiyalariga tayangan holda kasbiy rivojlanish vazifalarini belgilaydilar | | | |
| 20 | O‘qituvchining kasbiy o‘sishi turli usullar bilan qo‘llab-quvvatlanadi | | | |

Maktabda muntazam foydalaniladigan vositalar sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan jarayonlarni baholashdan tashqari, o‘zgarishlar monitoringi uchun o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashga qaratilgan maktab dasturi qanday amalga oshirilayotganini kuzatib borish muhimdir. Buning uchun dasturning o‘zini uning to‘liqligi hamda natijalarni yaxshilash vazifalariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir (ayniqsa, monitoring va baholash dastur tasdiqlanganidan ikki-uch yil o‘tgach o‘tkazilayotgan bo‘lsa). Ushbu ishni birinchi bosqichda maktabni tashqi baholash jarayoni ham amalga oshirishi mumkin, bu haqda quyida batafsilroq so‘z yuritiladi.

19-jadvalda 1-blok savollariga javob berish lozim. Ikkinchi qadam sifatida dasturda e’lon qilingan choralar maktab tomonidan qanchalik amalga oshirilayotganini baholash va 2-blok savollariga javob berish kerak. Uchinchi qadam esa maktab o‘z vazifalarini amalga oshirish uchun qanday qo‘llab-quvvatlashni va qaysi darajada olayotganini tahlil qilishdir. Ushbu qadamga 3-blok muvofiq keladi. Amalga oshirilgan tahlildan so‘ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda dasturga tuzatishlar kiritish mumkin. Har bir alohida maktabda bunday kompozitsiya taklif etilganidan farq qilishi va maktab tomonidan qabul qilingan natijalarni yaxshilash rejasini aks ettirgan holda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin.

*19-jadval*

**Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturini ekspertizadan o‘tkazish uchun materiallar**

| **1-blok: umumiy**<br>Iltimos, taklif etilgan savollarga javob bering va dasturning to‘liqligini aniqlagan holda jadvalni to‘ldiring. | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **T/r** | **Savol** | **To‘liq hajmda** | **Qisman** | **Yo‘q** |
| 1 | Barcha rejalashtirilgan tadbirlar o‘z-o‘zini tahlil qilish ma’lumotlariga asoslanganmi? | | | |
| 2 | Rejalashtirilgan tadbirlar o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonida aniqlangan, o‘zgartirishga muhtoj bo‘lgan barcha sohalarni qamrab olganmi? | | | |
| 3 | Rejalashtirilgan tadbirlar o‘quvchilar natijalarini yaxshilash maqsad va vazifalariga qanchalik mos keladi? | | | |
| 4 | Dasturning maqsad va vazifalari barcha ishtirokchilar uchun (harakatlar, tadbirlar darajasida) aniqlashtirilganmi? | | | |
| 5 | Har bir tadbirni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan muddatlar aniqlashtirilganmi? | | | |
| 6 | Belgilangan muddatlar vazifalarni amalga oshirish uchun qanchalik real? | | | |
| 7 | Maktab xodimlari va jamoatchilik dastur ishlab chiqilganligi haqida xabardor qilinganmi? | | | |
| 8 | Har bir harakat tadbir bo‘yicha ijrochilar (mas’ullar) belgilanganmi? | | | |
| 9 | Mas’ullar o‘z vazifalaridan xabardor qilinganmi? | | | |

*19-jadvalning davomi*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10 | Har bir vazifa uchun ularni muvaffaqiyatli hal etish ko‘rsatkichlari belgilanganmi? | | | |
| 11 | Har bir tadbir bo‘yicha kutilayotgan aniq natijalar shakllantirilganmi? | | | |
| 12 | Natijalar qanchalik aniq shakllantirilgan? | | | |
| 13 | Natijalarga erishilganligini baholash imkonini beruvchi indikatorlar belgilanganmi? | | | |
| 14 | Har bir tadbirni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslar belgilanganmi? | | | |
| 15 | Har bir tadbirni amalga oshirish uchun resurslar yetarlimi? | | | |
| 16 | Resurslardan foydalanish imkoniyatlari dasturda qanchalik to‘liq aks ettirilgan (“tashqi muhit” resurslari: mahalliy daraja (tuman, shahar, qishloq), munitsipal daraja, hududiy daraja, ijtimoiy sheriklar)? | | | |
| 17 | Har bir vazifa bo‘yicha dastur ijrosining monitoringi uchun axborot manbalari belgilanganmi? | | | |
| 18 | Har bir vazifa bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash uchun mas’ullar belgilanganmi? | | | |
| 19 | Ma’lumotlarni to‘plash davriyligi belgilanganmi? | | | |
| 20 | Monitoring doirasida ota-onalar / o‘quvchilar / maktab xodimlari fikrini o‘rganish ko‘zda tutilganmi? | | | |
| 21 | Maktab xodimlari va jamoatchilikni monitoring natijalari haqida xabardor qilish usullari belgilanganmi? | | | |
| 22 | Loyiha jamoasi tomonidan dasturning borishi va uni amalga oshirish natijalarini tahlil qilish (muhokama qilish) ko‘zda tutilganmi? | | | |

*19-jadvalning davomi*

| **2-blok: dasturning amalga oshirilishi**<br>Tavsiflangan vazifalar va harakatlarning qaysilari dasturga kiritilganligini aniqlang. Ulardan qaysilari va qaysi darajada amalga oshirilmoqda? Dasturni yanada samaraliroq amalga oshirish uchun nimalar qilish kerakligini asoslang (sharh bering). | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| T/r | Vazifalar / harakatlar | Kiritilgan / kiritilmagan | Qisman amalga oshirilmoqda | Faol amalga oshirilmoqda | Izoh |
| **I** | **Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘qitish sifatini oshirish, tajriba almashish** | | | | |
| 1 | Pedagogning kasbiy rivojlanish rejalarini joriy etish | | | | |
| 2 | Pedagoglar malakasini oshirish (kurslar, malaka oshirish va kasbiy qayta tayyorlash dasturlari) | | | | |
| 3 | Boshqa ta’lim tashkilotlaridagi samarali pedagoglarning mahorat darslari va ochiq darslariga tashrif buyurish | | | | |
| 4 | Tarmoqli (Internet) pedagogik hamjamiyatlarga (birlashmalarga) a’zo bo‘lish | | | | |
| 5 | Ish sifatini yaxshilash uchun maktab ichki kasbiy hamjamiyatlarini tuzish (sifat to‘garaklari, loyiha guruhlari, ijodiy guruhlar) | | | | |
| 6 | Pedagoglar tomonidan dars berish natijalari, yutuqlari va muammolarini muntazam ravishda guruh bo‘lib tahlil va muhokama qilish | | | | |
| 7 | O‘zaro dars kuzatish | | | | |
| 8 | Ustoz-shogird (murabbiylik) amaliyotini joriy etish | | | | |
| 9 | Mavzuli pedagogik kengashlar | | | | |

*19-jadvalning davomi*

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 10 | Pedagogik ustaxonalar | | | | |
| 11 | Ochiq darslar | | | | |
| 12 | Pedagoglarning eng yaxshi amaliyotlari bazasini shakllantirish | | | | |
| **II** | **O‘z-o‘zini baholash, monitoring, ta’lim jarayoni va natijalari diagnostikasi vositalarini rivojlantirish** | | | | |
| 1 | Ta’lim sifatini baholashning maktab ichki tizimini ishlab chiqish va joriy etish (takomillashtirish) | | | | |
| 2 | O‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish dinamikasini baholash | | | | |
| 3 | Natijalarning klasterli tahlili | | | | |
| 4 | O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini, ta’lim sifatidan qoniqqanlik darajasini tadqiq qilish | | | | |
| 5 | Yagona davlat imtihoni va Davlat yakuniy attestatsiyasi natijalari tahlili | | | | |
| 6 | Maktab bitiruvchilarining jamiyatga moslashuvini monitoring qilish | | | | |
| **III** | **Boshqaruv va yetakchilikni rivojlantirish** | | | | |
| 1 | Boshqaruvni natijalarga qarab tashkil etish amaliyotini joriy etish | | | | |
| 2 | Pedagoglarni faoliyat natijalariga ko‘ra rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish | | | | |
| 3 | Pedagoglarni boshqaruvga jalb etish (maktab muammolarini muhokama qilish va qarorlar qabul qilish) | | | | |

*19-jadvalning davomi*

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **IV** | **O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish / o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish** | | | | |
| 1 | Maktab ichki tanlovlari tizimini rivojlantirish (yutuqlar ko‘rigi, konferensiyalar, marafonlar, olimpiadalar) | | | | |
| 2 | O‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish tizimini tashkil etish (rivojlantirish) | | | | |
| 3 | Loyiha faoliyati texnologiyalarini rivojlantirish | | | | |
| 4 | AKTni rivojlantirish | | | | |
| 5 | O‘quvchilarni psixologik-pedagogik kuzatib borish (qo‘llab-quvvatlash) dasturlarini amalga oshirish | | | | |
| **V** | **Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish** | | | | |
| 1 | Boshqaruv kengashi va ota-onalar qo‘mitasi faoliyatini faollashtirish | | | | |
| 2 | Mahalliy hamjamiyat hayotida maktab faolligini oshirish: tashabbuslarni ishlab chiqish va amalga oshirish | | | | |
| 3 | Maktab saytini modernizatsiya qilish | | | | |
| 4 | Ommaviy ma’ruzani (hisobotni) tayyorlash | | | | |
| 5 | OAVda materiallar chop etish (nashrlar qilish) | | | | |
| 6 | Ota-onalarni xabardor qilish va oqartirish (ota-onalar universiteti, yalpi ta’lim) | | | | |

*19-jadvalning davomi*

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7 | Bolaning o‘quv yutuqlarini oilasiga taqdim etish (prezentatsiya qilish) | | | | |
| 8 | Ota-onalar uchun o‘qituvchilarning (sinf rahbarlarining) yakka tartibdagi konsultatsiyalari | | | | |
| 9 | Oila bilan hamkorlikdagi loyihalar va tadbirlar | | | | |
| 10 | Pedagoglarning ota-onalar bilan birgalikdagi psixologik treninglari | | | | |
| **VI** | **Ta’lim mazmunining o‘zgarishi** | | | | |
| 1 | Ta’lim dasturining yangi variativ komponentini ishlab chiqish | | | | |
| 2 | Tanlov bo‘yicha taklif etilayotgan fakultativlar va maxsus kurslar to‘plamini o‘zgartirish | | | | |
| 3 | Darsdan tashqari faoliyatni rivojlantirish | | | | |
| **VII** | **Ijtimoiy sheriklik va tarmoqli hamkorlik / resurslarni jalb etish** | | | | |
| 1 | Madaniyat, sport, qo‘shimcha ta’lim tashkilotlari, PPMS (psixologik-pedagogik, tibbiy-ijtimoiy yordam) markazlari hamda oliy ta’lim tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish | | | | |
| 2 | Tashkilotni ta’lim tashkilotlarining assotsiatsiyalari va tarmoqli hamjamiyatlariga kiritish | | | | |

*19-jadvalning oxiri*

| **3-blok: qo‘llab-quvvatlash resurslari**<br>Maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi vazifalari hamda belgilangan qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishlaridan kelib chiqib, qo‘llab-quvvatlash shakl va usullarini aniqlang. | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| *Qo‘llab-quvvatlash* | *Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, o‘qitish sifatini oshirish va tajriba almashish* | *O‘z-o‘zini baholash, monitoring, ta’lim jarayoni va natijalari diagnostikasi vositalarini rivojlantirish* | *Boshqaruv va yetakchilikni rivojlantirish* | *O‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini oshirish / o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish* | *Ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish* | *Ta’lim mazmunining o‘zgarishi* | *Ijtimoiy sheriklik va tarmoqli hamkorlik / resurslarni jalb etish* |
| Ekspertiza | | | | | | | |
| O‘qitish | | | | | | | |
| Konsultatsiya berish | | | | | | | |
| Resurslar bilan qo‘llab-quvvatlash | | | | | | | |
| Axborot-metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash | | | | | | | |

O‘quvchilarning ta’lim natijalarini oshirish dasturi ijrosini monitoring qilishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yana bir foydali vosita — o‘z-o‘zini tahlil qilish uchun mo‘ljallangan “Loyiha kundaligi (maktab / pedagog / direktor)” hisoblanadi (20–22-jadvallar). Ushbu kundalikdan foydalanish quyidagi savollarga javob topishga yordam beradi: qo‘llab-quvvatlash dasturlari hamda maktab ichidagi tajriba almashish jarayonida o‘zlashtirilgan bilim, metodika va texnologiyalar boshqaruv hamda pedagogik amaliyotga joriy etildimi; ular maktab faoliyatida qanday ijobiy natijalarga olib keldi va hokazo.

“Loyiha kundaligi (maktab)”ga (20-jadvalga qarang) maktab vakillari ishtirok etgan o‘quv tadbirlari (treninglar, seminarlar va boshqalar) haqidagi ma’lumotlar kiritiladi. Bular loyiha doirasida respublika, hududiy hamda tuman (shahar) darajasida o‘tkazilgan tadbirlar (treninglar, o‘quv kurslari, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar va boshqalar) bo‘lishi mumkin (“Tadbir” ustuni).

“Treningning asosiy mazmuni” ustuniga tadbir davomida o‘rganilgan va o‘zlashtirilgan metodika, texnologiya, ish usullari hamda vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi.

“O‘quvchilarning ta’lim natijalarini oshirish dasturining tegishli bandi” ustuniga maktab dasturida o‘zlashtirilgan metodika va ish usullarini amaliyotga joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirning nomi yoziladi. Masalan: trening mavzusi — “Fasilitator o‘qituvchi”; dasturdagi tegishli chora-tadbir — “O‘quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish: guruhlarda ishlash, muloqot va munozara.”

“Loyiha kundaligi (pedagog)” (21-jadvalga qarang) hamda **“Loyiha kundaligi (direktor / direktor o‘rinbosari)”**ga (22-jadvalga qarang) o‘zlashtirilgan metodika va ish usullarining ta’lim jarayoni yoki boshqaruv faoliyatida qo‘llanilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritiladi. “Foydalanish natijalari” ustunida amalga oshirilgan ishlarning aniq natijalari (dasturlar, metodik ishlanmalar va boshqalar), shuningdek, ta’lim jarayonidagi ijobiy sifat o‘zgarishlari (o‘quvchilarning yutuqlari, maktab faoliyati natijalari, ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro munosabatlarning yaxshilanishi va boshqalar) aks ettiriladi. “Sharhlar” ustunida esa qayd etilgan natijalarning mazmuni, ko‘lami va namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda ularning maktab faoliyati samaradorligini oshirish dasturi vazifalari bilan bog‘liqligi izohlanadi.

Xulosa o‘rnida yana bir bor ta’kidlaymiz: ayrim maktab jamoalari bir yilni sezilarli o‘zgarishlarni kuzatish va baholash uchun yetarli muddat emas, deb hisoblab, oraliq monitoringni o‘tkazishga yetarlicha e’tibor bermaydilar. Biroq bunday yondashuvni ma’qullab bo‘lmaydi. Muhimi, dastlabki rejadan chetlanishlar yoki aniqlangan muammolarni shunchaki qayd etish emas, balki ular asosida zarur choralarni ko‘rish hamda maktab faoliyati samaradorligini muntazam tahlil qilib, takomillashtirib borishdir.

*20-jadval*

**Loyiha kundaligi (maktab)**

| T/r | Tadbir | Tashkilotchi / provayder | Sanalar | Trening ishtirokchilari | Treningning asosiy elementlari | O‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashga qaratilgan maktab dasturining unga muvofiq keluvchi elementlari |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Hududlararo ilmiy-amaliy seminar | DUI-OAI (Oliy iqtisodiyot maktabi davlat universiteti) / Hududiy ta’lim departamenti | 21.05.2026 | 1.<br>2.<br>3. | 1.<br>2.<br>3. | |
| 2 | | | | | | |
| 3 | | | | | | |

*21-jadval*

**Loyiha kundaligi (pedagog)**

| T/r | F. I. Sh. | Ishda foydalanilayotgan metodlar (texnologiyalar, usullar) | Qo‘llanilgan joyi (sinf, kurs va h.k.) | Foydalanish natijalari | Pedagogning sharhlari | Kuratorning sharhlari (metodist, loyiha rahbari) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | | |
| 2 | | | | | | |

*22-jadval*

**Loyiha kundaligi (direktor / administrator)**

| T/r | Foydalanish shakli (faoliyat usuli, kommunikatsiya va h.k.) | Qo‘llanilgan joyi (faoliyat turi, ish «hududi» va h.k.) | Foydalanish natijalari | Direktor / administratorning sharhlari | Kuratorning sharhlari (tuman (shahar) / hududiy koordinator) |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | | | | | |
| 2 | | | | | |